

O'ZBEKISTONNING TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BAHOLASH VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI

Qodirqulov Ilhom Olim o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti KB-61-guruh talabasi i.qodirqulov@tsue.uz

Ibragimov G'anijon G'ayratovich

*Ilmiy rahbar: Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i -
Innovatsion Menejment kafedrasi dotsenti Phd, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
g.ibragimov@tsue.uz*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar misolida investitsion faoliyat samaradorligi va korporativ boshqaruv mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. So'nggi yillarda mamlakatda turizm tarmog'iga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, korporativ boshqaruvning shaffoflik, hisobdorlik va manfaatdor tomonlar bilan aloqadorlik kabi tamoyillari sohada samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Tadqiqotda davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari ("Uzbekistan Airways", "Samarkand Touristic Center") hamda xususiy sektor korxonalari ("Silk Road Destination",) misolida investitsion faoliyat va boshqaruv amaliyoti qiyosiy o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruv mexanizmlarini to'liq joriy etgan korxonalarda investitsion jozibadorlik, moliyaviy natijalar va iqtisodiy barqarorlik yuqoriroq darajada namoyon bo'ladi. Maqola yakunida turizm korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm sohasi, investitsion faoliyat, korporativ boshqaruv, iqtisodiy o'sish, aksiyadorlik jamiyati, xususiy sektor, shaffoflik, investitsion samaradorlik.*

Аннотация: *В данной статье на примере предприятий туристической отрасли Узбекистана проанализирована взаимосвязь между эффективностью инвестиционной деятельности и механизмами корпоративного управления. В последние годы объем инвестиций, направленных в сферу туризма, значительно увеличился, что способствует устойчивому экономическому росту страны. При этом такие принципы корпоративного управления, как прозрачность, подотчетность и взаимодействие с заинтересованными сторонами, рассматриваются как важнейшие факторы повышения эффективности в отрасли. В исследовании проведён сравнительный анализ инвестиционной активности и практики управления на примере предприятий с государственным участием («Uzbekistan Airways», «Samarkand Touristic Center») и частного сектора («Silk Road Destination»). Результаты анализа показывают, что предприятия, внедрившие полноценные механизмы корпоративного управления, демонстрируют более высокий уровень инвестиционной привлекательности, финансовых результатов и экономической устойчивости. В заключение статьи разработаны*

рекомендации по совершенствованию корпоративного управления и стимулированию инвестиционной активности в туристических компаниях.

Ключевые слова: туристическая отрасль, инвестиционная деятельность, корпоративное управление, экономический рост, акционерное общество, частный сектор, прозрачность, инвестиционная эффективность.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylandi. 2016-yildan boshlab Prezident tashabbusi bilan qabul qilingan qator islohotlar — xususan, “Turizmni rivojlantirish to'g'risida”gi qonun, 2019–2025-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiya, hamda “Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi–2030” dasturlari mamlakatda turizm infratuzilmasi, investitsion muhit va boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda turizm sohasi yalpi ichki mahsulotda (YAIM) o'rtacha 3 foiz ulushga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiy diversifikatsiyasida sezilarli o'rin tutadi. Soha bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2023-yilda 500 million AQSh dollaridan oshdi. Shu bilan birga, turizm tarmog'ida 300 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich yil sayin o'smoqda.

Shunga qaramay, O'zbekiston turizm sohasida investitsion samaradorlik va korporativ boshqaruvning amaliy joriy etilishi hali ham to'liq darajada yo'lga qo'yilmagan. Ayrim korxonalarda korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillari — shaffoflik, hisobdorlik, manfaatdor tomonlar bilan ochiqlik yetarli darajada ta'minlanmagan. Bu esa investitsion oqimlar, innovatsion faoliyat va boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — O'zbekiston turizm korxonalarida investitsion faoliyatni baholash hamda korporativ boshqaruv mexanizmlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tahlil qilishdir.

Mazkur maqola quyidagi savollarga javob izlaydi:

O'zbekiston turizm sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi va dinamikasi qanday?

Korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish investitsion samaradorlikka qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

Turizm korxonalari uchun qanday boshqaruv mexanizmlari eng maqbul natijani beradi?

Bu savollarga javob berish orqali tadqiqot nafaqat iqtisodiy tahlilni, balki O'zbekistonning turizm sohasidagi barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda amaliy tavsiyalarni ham ilgari suradi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyalash jarayonida turizm sohasi muhim strategik yo'nalish sifatida shakllandi. Jahon tajribasida turizm yalpi ichki mahsulotning o'sishiga sezilarli hissa qo'shuvchi tarmoq bo'lib, investitsion muhit va korporativ boshqaruv samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

Chet ellik olimlardan P. Drucker (2007) korporativ boshqaruvni kompaniya raqobatbardoshligini ta'minlovchi bosh omil sifatida ko'rsatgan. R. La Porta va hamkorlari (1999) esa investitsion faoliyat samaradorligi shaffoflik va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muvozanat darajasiga bog'liqligini ta'kidlagan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar — A. Vahobov, B. Qosimov va boshqalar — milliy korxonalar, ayniqsa xizmat ko'rsatish va turizm sohasida, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish investitsion jozibadorlikni oshirishga yordam berishini qayd eetgan Davlat siyosatida ham bu yo'nalish alohida e'tiborda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi (2019–2025) hujjatlarida sohada sarmoyalarni jalb etish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish maqsad qqilingan

Amaliy misollardan ko'rinadiki, “Uzbekistan Airways” va “Samarkand Touristic Center” kabi davlat ishtirokidagi Ajar investitsion faoliyatda markazlashgan boshqaruv tizimiga tayanadi, “Silk Road Destination” va “Silver Hill Eco-Tourism” kabi xususiy korxonalar esa mustaqil boshqaruv orqali yuqori investitsion samaradorlikka erishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston turizm korxonalarida korporativ boshqaruv va investitsion faoliyat o'zaro bog'liq bo'lib, samarali boshqaruv mexanizmlari iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — O'zbekiston turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarda investitsion faoliyat samaradorligini baholash hamda korporativ boshqaruv mexanizmlarining ta'sirini o'rganishdan iborat. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil ob'ekti sifatida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan bir qator turizm korxonalari tanlab olindi. Jumladan, davlat ishtirokidagi “Uzbekistan Airways”, “Samarkand Touristic Center” hamda xususiy sektor vakili bo'lgan “Silk Road Destination” kompaniyalari ma'lumotlari asos qilib olindi. Ushbu tanlov davlat va xususiy sektor o'rtasidagi boshqaruv yondashuvlari va investitsion faollikni solishtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda investitsion faoliyat samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1. Investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati – korxonaning investitsion faolligini ko'rsatadi;
2. Rentabellik darajasi – sarmoyalarning moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash uchun;
3. Korporativ boshqaruv tamoyillari – shaffoflik, javobgarlik va manfaatdor tomonlar bilan aloqadorlik darajasi orqali baholandi.

Tahlil uchun turizm korxonalarining ochiq moliyaviy hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda “Tourism Development

Committee” ochiq ma’lumotlar bazasidan foydalanildi. Shuningdek, so’nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari va hukumat qarorlari huquqiy asos sifatida o’rganildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda korporativ boshqaruv mexanizmlarining investitsion faoliyat natijalariga bevosita ta’siri turizm tarmog’i misolida qiyosiy tahlil asosida o’rganildi. Davlat va xususiy sektor korxonalarining boshqaruv amaliyotidagi farqlar ularning investitsion jozibadorligiga qanday ta’sir ko’rsatishi aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Metodologik jihatdan tadqiqot deskriptiv va analitik yondashuv uyg’unligiga asoslanib, natijalar umumlashtirilgan tahlil va xulosalar orqali ifodalandi.

Natijalar va tahlil.

O’zbekiston turizm sohasida so’nggi yillarda investitsion faoliyat faollashib, sohaga yo’naltirilgan sarmoyalar hajmi izchil o’smoqda. Davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko’ra, 2018–2023-yillar oralig’ida turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo’naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmi qariyb 2,5 barobar oshgan. Shu bilan birga, xususiy sektorning ulushi ham ortib, turizm xizmatlari bozorida raqobat kuchaymoqda.

Tahlil natijalariga ko’ra, davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari va xususiy turizm korxonalari o’rtasida investitsion faoliyat va korporativ boshqaruv yondashuvlarida sezilarli farqlar mavjud.

1. Davlat ishtirokidagi korxonalar misolida:

Masalan, “Uzbekistan Airways” kompaniyasi so’nggi yillarda turistlar oqimini oshirish va yangi yo’nalishlarni ochish maqsadida infratuzilma hamda texnik parkni yangilashga katta mablag’ yo’naltirgan. 2022-yilda kompaniya tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmi 2019-yilga nisbatan qariyb 60 foizga oshgan. Biroq tahlil shuni ko’rsatadiki, korporativ boshqaruv tizimi asosan markazlashgan bo’lib, qarorlar yuqori darajada qabul qilinadi. Bu esa ba’zi hollarda investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida byurokratik to’siqlarni keltirib chiqaradi.

Shunga qaramay, korxonalar ichki audit tizimini takomillashtirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish kabi choralar orqali shaffoflik darajasini oshirishga intilmoqda. Bu holat investitsion ishonchni bosqichma-bosqich mustahkamlamoqda.

2. Xususiy sektor misolida:

“Silk Road Destination” kompaniyasi esa o’z faoliyatida korporativ boshqaruvning zamonaviy tamoyillarini qo’llab, investitsion samaradorlikni oshirishga erishgan. Kompaniya 2021–2023-yillar davomida xorijiy sheriklik asosida mehmon uylari tarmog’ini kengaytirib, yangi turistik yo’nalishlar yaratgan. Rentabellik darajasi o’rtacha 18–20 foiz atrofida shakllanib, bu davlat ishtirokidagi korxonalarnikidan yuqoriroq natijani ko’rsatgan.

Xususiy kompaniyalarda qaror qabul qilish jarayonining tezligi, resurslardan samarali foydalanish va menejment tizimidagi moslashuvchanlik investitsion faoliyat samaradorligining asosiy omillari sifatida namoyon bo’lmoqda.

3. Qiyosiy tahlil natijalari:

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, turizm sohasidagi korxonalar faoliyatida korporativ boshqaruvning sifat darajasi investitsion jozibadorlik bilan bevosita bog'liq. Xususiy sektor korxonalarida mustaqil kuzatuv kengashlari va ochiq moliyaviy hisobot tizimlari mavjud bo'lgani sababli investorlar uchun ishonchlilik yuqoriroq. Davlat korxonalarida esa nazorat tizimlari kuchli bo'lishiga qaramay, qarorlar qabul qilish jarayonining sustligi investitsion natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, tahlil jarayonida aniqlanishicha, korporativ boshqaruv tamoyillarini to'liq joriy etgan korxonalarda investitsion samaradorlik o'rtacha 25–30 foiz yuqoriroq bo'ladi. Bu holat boshqaruv sifati va sarmoya natijalari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston turizm korxonalarida so'nggi yillarda korporativ boshqaruvni kuchaytirish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Biroq davlat ishtirokidagi kompaniyalarda boshqaruvdagi byurokratik cheklovlarni qisqartirish, manfaatdor tomonlar o'rtasida ochiqlikni kuchaytirish hamda xususiy sektor tajribasini amaliyotga tatbiq etish zarur.

Xulosa.

O'zbekistonda turizm sohasining barqaror rivojlanishi investitsion faoliyatning samaradorligi va korporativ boshqaruv mexanizmlarining sifatiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korporativ boshqaruvning shaffoflik, hisobdorlik va manfaatdor tomonlar bilan samarali aloqalar tamoyillari joriy etilgan turizm korxonalarida investitsion jozibadorlik yuqori bo'ladi.

Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari, xususan, "Uzbekistan Airways" AJ va "Samarkand Touristic Center" AJ misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish natijasida moliyaviy ko'rsatkichlar yaxshilangan, investorlar ishonchi ortgan hamda xizmatlar sifati oshgan.

Shu bilan birga, xususiy sektor vakillarida, ayniqsa kichik va o'rta turizm korxonalarida, korporativ boshqaruv tamoyillarini amaliyotga to'liq tatbiq etish borasida hali yetarli tajriba mavjud emas. Shu sababli quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

turizm korxonalarida korporativ boshqaruv kodeksini joriy etish va uning ijrosini nazorat qilish;

investitsion faoliyatni tahlil qilishning yagona metodikasini ishlab chiqish;

xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlari va grant dasturlarini kengaytirish;

kadrlar salohiyatini oshirish va menejment tizimini modernizatsiya qilish.

Ushbu chora-tadbirlar nafaqat turizm sohasida, balki mamlakat iqtisodiyotining umumiy raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5611-son qarori.

2.O‘zbekiston Respublikasi “Korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi qonuni, 2015-yil 6-may.

3.O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari. (www.stat.uz)

4.OECD (2015). G20/OECD Principles of Corporate Governance. Paris: OECD Publishing.

5.UNWTO (2023). Tourism Investment and Economic Development Report. Madrid: United Nations World Tourism Organization.

6.Karimov, A. (2022). “Turizm korxonalarida investitsion faoliyat samaradorligini oshirish omillari.” Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №3.

7.Rasulov, D. (2021). “Korporativ boshqaruvning milliy modeli va uning O‘zbekistondagi rivojlanish tendensiyalari.” Toshkent moliya instituti axborotnomasi, №2.